



ANDIJON VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI






CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023-yil 1-sentabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **5 872** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **21** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **5 851** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023- yilning yanvar-avgust oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **12 826,0** mlrd so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan **106,2** % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **889,2** mlrd so'mni (o'sish sur'ati **106,9** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **11 936,8** mlrd so'mni (o'sish sur'ati **106,1** %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 987,5** mlrd so'mni (o'sish sur'ati **103,6** %) tashkil etdi.

	Jami mlrd so'm	2022- yil yanvar- avgust oyiga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	12 826,0	106,2
Andijon sh.	3 624,7	111,0
Xonobod sh.	133,3	103,4
<i>tumanlar</i>		
Oltinko'l	504,0	106,2
Andijon	811,6	102,2
Baliqchi	825,9	103,9
Bo'ston	191,8	108,3
Buloqboshi	410,0	102,8
Jalaquduq	441,1	114,2
Izboskan	454,6	109,1
Ulug'nor	171,5	102,3
Qo'rg'ontepa	887,8	110,4
Asaka	1 073,8	101,9
Marhamat	586,3	103,5
Shahrixon	1 666,1	101,6
Paxtaobod	582,0	102,2
Xo'jaobod	461,2	104,1


2023- yilning yanvar-avgust oylarida 2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan viloyatning Andijon shahri (**11,0** %), Bo'ston (**8,3** %), Izboskan (**9,1** %) va Jalaquduq (**14,2** %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.



YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI




Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi (yanvar-avgust)




So'nggi **5 yillikda** (2019-2023-yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2021- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi eng yuqori o'sish 2022- yilga tog'ri kelib, **110,5 %** ni tashkil qilgan.

Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati oylar kesimida (foizda) (2022- yil, 2023- yil yanvar-avgust oyi)



2023- yilning yanvar-avgust oyida o'sish sur'ati 106,2 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Andijon shahri **28,3 %** bilan **7 697,4** mlrd so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Xonobod shahri **1,0 %** bilan **2 949,3** mlrd so'mni tashkil etdi.


Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.




CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **11 936,8** mlrd so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan **106,1 %** ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **93,1 %** ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan **106,9 %** ga o'sdi va **889,2** mlrd so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **6,9 %** ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)

Andijon viloyati	6,9	93,1
Andijon sh.	16,2	83,8
Xonobod sh.	5,6	94,4
Oltinko'l	6,0	94,0
Andijon	8,2	91,8
Baliqchi	3,6	96,4
Bo'ston	6,5	93,5
Buloqboshi	1,4	98,6
Jalaquduq	7,2	92,8
Izboskan	2,4	97,6
Ulug'nor	0,9	99,1
Qo'rg'ontepa	0,8	99,2
Asaka	3,5	96,5
Marhamat	2,0	98,0
Shahrixon	1,3	98,7
Paxtaobod	2,6	97,4
Xo'jaobod	2,8	97,2

■ Yirik korxonalar ■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qo'rg'ontepa (**99,2 %**), Ulug'nor (**99,1 %**), Shahrixon (**98,7 %**) va Buloqboshi (**98,6 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **6,9 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Andijon shahri (**16,2 %**), Andijon (**8,2 %**), Jalaquduq (**7,2 %**) va Oltinko'l (**6,0 %**) tumanlarida kuzatildi.



AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming so'm	O'sish sur'ati, foizda
Andijon viloyati	3 841,9	103,9
Andijon shahar	7 697,4	108,6
Xonobod shahar	2 949,3	101,2
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	2 654,2	103,8
Andijon	2 885,3	100,1
Baliqchi	3 892,1	101,8
Bo'ston	2 507,7	106,3
Buloqboshi	2 723,9	100,8
Jalaquduq	2 250,7	112,0
Izboskan	1 808,2	107,0
Ulug'nor	2 714,1	100,5
Qo'rg'ontepa	3 911,2	108,5
Asaka	3 076,0	99,7
Marhamat	3 198,4	101,4
Shahrixon	5 226,3	99,3
Paxtaobod	2 836,4	100,0
Xo'jaobod	3 911,9	101,3

2023- yilning yanvar-avgust oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **3 841,9** ming so'mni (2022- yilning yanvar - avgust oyiga nisbatan **103,9** %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Andijon shahri (**7 697,4** ming so'm), Shahrixon (**5 226,3** ming so'm) va Xo'jaobod (**3 911,9** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.




UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Viloyat bo'ycha 2023- yilning yanvar-avgust oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 987,5** mlrd so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan **103,6** % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12-bozor va 12-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **848,2** mlrd so'mni (**121,7** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **1 139,3** mlrd so'mni tashkil etdi (**106,0** %).

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd so'm)



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (yanvar-avgust, foizda)




UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan, savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd so'm	2022- yil yanvar- avgust oyiga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	1 987,5	103,6
Andijon shahar	452,1	124,3
Xonobod shahar	3,1	40,0
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	34,7	95,3
Andijon	58,9	96,4
Baliqchi	115,5	89,7
Bo'ston	19,7	134,8
Buloqboshi	67,2	89,1
Jalaquduq	64,2	157,8
Izboskan	24,4	154,0
Ulug'nor	67,4	97,0
Qo'rg'ontepa	115,3	239,8
Asaka	213,4	107,1
Marhamat	102,2	84,9
Shahrixon	384,9	89,1
Paxtaobod	174,6	88,0
Xo'jaobod	90,0	84,8

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.



UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI











2023- yilning yanvar-avgust oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **848,2** mlrd so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**280,5** mlrd so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		Mlrd so'm
	Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari	280,5
	Non va non mahsulotlari	234,4
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	100,5
	Tovuq go'shti	33,0
	Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yong'oq, bodom, pista va boshqalar)	30,0
	Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...)	17,8
	Tuxum	24,6
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem-xashak	4,9
	Ziravorlar	32,2
	Tuzlamalar	18,3
	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari (manzarali va qishloq xo'jaligi)	9,1
	Nooziq-ovqat tovarlari	62,9



UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023- yilning yanvar-avgust oyida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **1 139,3** mlrd so‘mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosi **968,1** mlrd so‘m, qo‘y va echkilar - **154,3** mlrd so‘mni, otlar - **8,9** mlrd so‘mni, parrandalar - **8,0** mlrd so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		mlrd so‘m
	2 yoshdan katta bo‘lgan qoramollar	574,0
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	238,4
	1 yoshgacaha bo‘lgan yosh mollar	155,7
	Qo‘ylar	150,7
	Otlar	8,9
	Echkilar	3,6
	Kurka, o‘rdak, g‘oz	5,0
	Tovuqlar	2,3
	Quyonglar	0,4
	Qushlar	0,3

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023- yil 1- **sentabr** holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni **1 150** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **1** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **1 149** tani tashkil qildi.


	Jami mlrd so'm	2022- yil yanvar- avgust oyiga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	231,3	108,4
Andijon shahar	104,6	112,4
Xonobod shahar	2,8	106,4
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	11,2	106,0
Andijon	18,2	106,6
Baliqchi	4,5	105,6
Bo'ston	5,5	105,0
Buloqbo'shi	1,9	104,7
Jalaquduq	4,7	106,4
Izboskan	6,4	105,1
Ulug'nor	2,6	107,9
Qo'rg'ontepa	9,5	97,3
Asaka	9,9	105,4
Marhamat	7,0	105,7
Shahrixon	29,2	105,8
Paxtaobod	7,7	106,2
Xo'jaobod	5,6	108,2

2023- yilning yanvar-avgust oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **231,3** mlrd so'mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **108,4** % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining **93,0** % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- sentabr holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) **2 436,9** mlrd so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **121,2 %** ga ortdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **1 229,0** mlrd so'm (o'sish sur'ati – **138,5 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – **1 207,9** mlrd so'mni (o'sish sur'ati – **112,0 %**) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi



Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajm, mlrd so'm	2022- yil yanvar-avgust oyiga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	2 436,9	114,0
Andijon shahar	1 680,8	116,8
Xonobod shahar	0,2	106,2
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	104,4	103,1
Andijon	86,6	103,1
Baliqchi	2,6	104,1
Bo'ston	0,3	104,4
Buloqboshi	0,5	104,6
Jalaquduq	2,5	103,7
Izboskan	1,1	104,7
Ulug'nor	0,2	105,6
Qo'rg'ontepa	28,6	103,2
Asaka	280,8	135,1
Marhamat	9,0	103,2
Shahrixon	8,7	103,8
Paxtaobod	1,8	104,0
Xo'jaobod	229,0	91,6


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Andijon shahri (**1 680,8** mlrd so'm), Asaka (**280,8** mlrd so'm) va Xo'jaobod (**229,0** mlrd so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI




Ulgurji savdo tovar aylanmasi - qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o'z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o'zgartirmagan holda jo'natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to'lanadigan yoki to'lanmaganligidan qat'iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so'mda



Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar-avgust oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **3 926,4** mlrd so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **7,1 %** ga o'sdi.




Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **3 612,7** mlrd so'mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **106,8 %** ga to'g'ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **92,0 %** ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar, Oltinko'l, Jalaquduq va Marhamat tumanlarida kuzatildi.

2023- yil 1- sentabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **2 763** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **25** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **2 738** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd so'm	2022- yil yanvar- avgust oyiga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	3 926,4	107,1
Andijon shahar	1 421,0	103,3
Xonobod shahar	18,7	105,9
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	219,0	122,9
Andijon	377,5	117,6
Baliqchi	260,7	103,9
Bo'ston	98,4	105,5
Buloqboshi	86,6	106,8
Jalaquduq	46,2	121,0
Izboskan	75,0	105,5
Ulug'nor	42,6	107,0
Qo'rg'ontepa	96,3	104,7
Asaka	121,6	105,7
Marhamat	66,8	114,0
Shahrixon	874,6	104,7
Paxtaobod	70,0	106,7
Xo'jaobod	51,4	153,9



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi**
Tel.: 74 228-30-57